QASHQADARYO VILOYATI QARSHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-iyul | 261-4-59-Q/24 | Qarshi tuman hokimligi

Qarshi tuman hokimining 2024-yil 21-iyundagi 231-4-59-Q/24-son qarorini bekor qilish to‘g‘risida

Qarshi tuman adliya bo‘limining 2024-yil 3-iyul kunidagi “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi №27-7/1-34-sonli taqdimnomasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan;

QAROR QILAMAN:

1. Qarshi tuman adliya bo‘limining 2024-yil 3-iyul kunidagi “Qonun hujjatlarining buzilishi, ularning sabablari va bunga olib keluvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi №27-7/1-34-sonli taqdimnomasini ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining 2024-yil 21–iyundagi “Qarshi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 231-4-59-Q/24 -sonli qarori bekor qilinsin.

3. Qabul qilinayotgan qaror “e-qaror.gov.uz” elektron tizimi orqali manfaatdor tomonlarga yetib borishi inobatga olinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari B.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Alikulov.Z.X**